ilmiy-amaliy jurnal · ISSN 3093-8694
UDK 37.015.3:159.947.5

Maxmudova Darmonjon Bozorboyevna,
“International School of Finance Technology and Science” instituti professori v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLAR FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIRI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy yoshlar faoliyatining o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, jumladan, raqamli muhitda shakllangan axborotni qabul qilish uslubi, tezkor natijaga erishishni kutish tendensiyasi va umrbod ta’limga bo‘lgan ehtiyojning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ichki va tashqi omillar integratsiyasini ifodalovchi “impuls – internalizatsiya – mustaqil faoliyat” uch bosqichli modeli hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi mikro-, mezo- va makrodarajalar asoslab beriladi. Xorijiy motivatsiya nazariyalarini milliy-madaniy kontekstga moslashtirish zarurati yoritilib, yoshlarning o‘z-o‘zini rivojlantirish darajasini baholash mezonlari, monitoring mexanizmlari va amaliyotga tatbiq etish bosqichlari tavsiflanadi. Ta’lim muassasalari, oila, yoshlar tashkilotlari va yoshlarning o‘zlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, internalizatsiya, o‘zini o‘zi belgilash nazariyasi, raqamli avlod, umrbod ta’lim, mentorlik, refleksiya.

ОСОБЕННОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МОЛОДЁЖИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА САМОРАЗВИТИЕ

Аннотация. В статье анализируются специфические социально-психологические особенности деятельности современной молодёжи, включая сформированный в цифровой среде стиль восприятия информации, тенденцию ожидания быстрого результата и потребность в непрерывном образовании, а также их влияние на процесс саморазвития. В исследовании использованы методы теоретического и сравнительного анализа, системный подход и обобщение научной литературы. Обоснованы трёхэтапная модель «импульс – интернализация – самостоятельная деятельность», отражающая интеграцию внутренних и внешних факторов, а также микро-, мезо- и макроуровни стимулирования саморазвития. Раскрывается необходимость адаптации зарубежных теорий мотивации к национально-культурному контексту. Описываются критерии оценки уровня саморазвития молодёжи, механизмы мониторинга и этапы практического внедрения предложенных подходов. Разработаны практические рекомендации для образовательных учреждений, семьи, молодёжных организаций и самой молодёжи.

Ключевые слова: молодёжь, саморазвитие, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, интернализация, теория самодетерминации, цифровое поколение, непрерывное образование, наставничество, рефлексия.

SPECIFIC FEATURES OF YOUTH ACTIVITY AND THEIR IMPACT ON SELF-DEVELOPMENT

Abstract. This article examines the specific socio-psychological characteristics of contemporary youth activity, including information-processing styles shaped by the digital environment, the tendency to expect quick results, and the growing need for lifelong learning, as well as their impact on self-development. The study employs theoretical analysis, comparative analysis, a systems approach, and the synthesis of scientific literature. It substantiates a three-stage model of "impulse – internalization – independent activity", which reflects the integration of internal and external factors, together with the micro-, meso-, and macro-levels of support for self-development. The article highlights the need to adapt foreign motivation theories to the national and cultural context. It also outlines assessment criteria, monitoring mechanisms, and stages for implementing the proposed approaches in practice. Practical recommendations are provided for educational institutions, families, youth organizations, and young people themselves.

Keywords: youth, self-development, intrinsic motivation, extrinsic motivation, internalization, self-determination theory, digital generation, lifelong learning, mentoring, reflection.

KIRISH

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida bilim hamda kasbiy koʻnikmalarning yangilanish surʼati tezlashib, shaxsdan butun hayoti davomida mustaqil taʼlim olish va oʻz salohiyatini muntazam rivojlantirib borish talab etilmoqda. Shu sababli yoshlarda oʻz-oʻzini rivojlantirish ehtiyoji va unga xizmat qiluvchi koʻnikmalarni shakllantirish zamonaviy taʼlim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasining "Taʼlim toʻgʻrisida"gi Qonunida hamda 2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlarning intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarish, taʼlim sifatini oshirish va uzluksiz taʼlim imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga alohida eʼtibor qaratilgan [1; 2].

Oʻz-oʻzini rivojlantirish shaxsning oʻz bilimlari, koʻnikmalari, qobiliyatlari, dunyoqarashi va irodaviy sifatlarini ongli ravishda takomillashtirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Mazkur jarayon faqat shaxsning ichki intilishi bilan belgilanmaydi, balki uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oilaviy muhiti, taʼlim muassasasidagi pedagogik sharoitlar va jamiyat tomonidan yaratiladigan imkoniyatlar bilan ham uzviy bogʻliqdir.

Zamonaviy yoshlar faoliyatida raqamli texnologiyalarning keng qoʻllanilishi, axborotga tezkor kirish imkoniyati va ijtimoiy tarmoqlarning taʼsiri alohida oʻrin tutadi. Bu omillar mustaqil bilim olish va yangi koʻnikmalarni egallash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, axborotning haddan tashqari koʻpligi, diqqatning tez chalgʻishi va qisqa muddatda natijaga erishish istagi uzoq muddatli maqsadlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Mehnat bozoridagi oʻzgarishlar ham yoshlarning oʻz-oʻzini rivojlantirishiga boʻlgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Kasbiy faoliyat davomida yangi bilimlarni egallash, mavjud malakalarni yangilash va oʻzgaruvchan sharoitlarga moslashish zarurati umrbod taʼlim tamoyilining ahamiyatini oshirmoqda [4]. Bunday sharoitda yoshlarning mustaqil taʼlim olish, oʻz faoliyatini rejalashtirish, natijalarni baholash

va muvaffaqiyatsizliklardan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifaga aylanadi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish samaradorligi ichki va tashqi motivatsiya o‘rtasidagi munosabatlarga ham bog‘liq. Dastlab o‘qituvchi, ota-ona yoki ijtimoiy muhit tomonidan berilgan rag‘bat yoshda muayyan faoliyatga qiziqish uyg‘otishi mumkin. Keyinchalik mazkur faoliyatning shaxsiy ahamiyati anglanib, tashqi talablar ichki qadriyatlarga aylanishi natijasida mustaqil faoliyatga o‘tish imkoniyati paydo bo‘ladi [6; 7]. Shu jihatdan, o‘z-o‘zini rivojlantirishni faqat rag‘batlantirish yoki nazorat qilish orqali emas, balki shaxsning mustaqilligi va ichki mas’uliyatini bosqichma-bosqich shakllantirish orqali tashkil etish lozim.

Mavzuning dolzarbligi yoshlar faoliyatining zamonaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘z-o‘zini rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik, pedagogik, oilaviy va institutsional omillarni yaxlit tizimda o‘rganish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi — zamonaviy yoshlar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoniga ta’sirini tahlil qilish hamda ichki va tashqi omillar integratsiyasini ifodalovchi nazariy modellar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

zamonaviy yoshlar faoliyatining asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash;

ichki va tashqi motivatsiyaning o‘zaro ta’sirini nazariy jihatdan tahlil qilish;

o‘z-o‘zini rivojlantirishning uch bosqichli modelini asoslash;

rag‘batlantiruvchi omillarning mikro-, mezo- va makrodarajalarini tavsiflash;

motivatsiya nazariyalarini milliy-madaniy kontekstda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;

o‘z-o‘zini rivojlantirishni baholash va monitoring qilish mezonlarini belgilash;

ta’lim muassasalari, oila, yoshlar tashkilotlari va yoshlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘z-o‘zini rivojlantirish va uning motivatsion asoslari psixologiya hamda pedagogika fanlarida keng o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy qarashlar shaxsning ehtiyojlari, ichki motivatsiyasi, mustaqil ta’lim olish qobiliyati, o‘ziga ishonchi va ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini tushuntirishga xizmat qiladi.

M. Prenskiy raqamli muhitda ulg‘aygan avlodning axborotni qabul qilish xususiyatlarini tahlil qilib, ularni “raqamli mahalliylar” tushunchasi bilan izohlagan [3]. Uning yondashuvi zamonaviy yoshlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Biroq raqamli muhitda ulg‘aygan barcha yoshlarning o‘rganish uslubi bir xil bo‘lmasligini ham hisobga olish zarur. Axborotni tez qabul qilish qobiliyati chuqur tahlil qilish yoki mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari bilan doimo bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi.

M. Noulz mustaqil yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasida o‘rganuvchining o‘z ta’lim ehtiyojlarini aniqlashi, maqsadlarni belgilashi, tegishli resurslarni tanlashi va natijalarni baholashdagi faol ishtirokiga e’tibor qaratadi [4]. Ushbu yondashuv o‘z-o‘zini rivojlantirishni tashqi boshqaruv bilan cheklanmaydigan, shaxsning ongli ishtiroki asosida kechadigan jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

A. Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi doirasida o‘zini namoyon etish ehtiyojini shaxsning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi bilan bog‘laydi [5]. Mazkur yondashuv insonning o‘z salohiyatini amalga oshirishga bo‘lgan intilishini tushuntirishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi.

E. Desi va R. Rayanning o‘zini o‘zi belgilash nazariyasi o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini tushuntirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu nazariyada avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik asosiy psixologik ehtiyojlar sifatida qaraladi. Shaxs o‘z faoliyatida tanlov imkoniyatiga ega bo‘lsa, o‘z qobiliyatlarini namoyon eta olsa va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni his qilsa, uning barqaror motivatsiyasi rivojlanishi uchun qulay sharoit yuzaga keladi [6; 7]. Shuningdek, tashqi talablarning shaxs tomonidan ichki qadriyat sifatida qabul qilinishi — internalizatsiya — motivatsiyaning barqarorlashuvida muhim o‘rin tutadi.

A. Bandura o‘z samaradorligi va ijtimoiy o‘rganish nazariyalari orqali shaxs rivojlanishida o‘ziga ishonch, ijtimoiy namuna va kuzatishning rolini asoslab bergan [8; 9]. Ushbu qarashlar yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda mentorlik, hamkorlikda o‘rganish va ijobiy namunalardan foydalanishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

B. Zimmerman o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish jarayonini maqsadlarni rejalashtirish, faoliyatni amalga oshirish va natijalarni refleksiya qilish bilan bog‘liq siklik jarayon sifatida tavsiflaydi [10]. Bu yondashuv yoshlarning o‘z-o‘zini rivojlantirish faoliyatini tizimli tashkil etish va natijalarni muntazam tahlil qilish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonlik olimlardan E. G‘oziyev shaxs faoliyati, psixik jarayonlar va motivatsiyaning psixologik asoslarini yoritgan [11]. G‘. Shoumarov tahriri ostidagi “Oila psixologiyasi” asarida oilaviy munosabatlar, tarbiya va shaxs shakllanishi masalalari ko‘rib chiqilgan [12]. Ushbu manbalar yoshlarning o‘z-o‘zini rivojlantirishida oila, ijtimoiy muhit va tarbiyaviy munosabatlarning o‘rnini tushunishda muhimdir.

Muallifning avvalgi tadqiqotlarida talabalarda o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, xalqaro tajribasi, jarayon modeli va samaradorligini aniqlash metodikasi yoritilgan [13–19]. Mazkur ilmiy ishlar o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini ta’lim jarayonida shakllantirish va baholash masalalariga nazariy hamda amaliy asos yaratadi.

E. Wengerning amaliyot hamjamiyatlari haqidagi qarashlari shaxsning bilim va ko‘nikmalarni ijtimoiy muhitda, hamfikrlar bilan hamkorlik orqali egallashiga e’tibor qaratadi [20]. G. Bekkerning inson kapitali nazariyasi esa ta’lim, bilim va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyatini ochib beradi [21]. D. Baumrindning ota-onalik nazoratiga oid tadqiqotlari oiladagi talabchanlik va qo‘llab-quvvatlash o‘rtasidagi muvozanatni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi [22].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasi, mustaqil ta’lim va shaxsiy mas’uliyat masalalari turli nazariyalar doirasida o‘rganilgan. Biroq yoshlar faoliyatining raqamli avlodga xos jihatlari, ichki va tashqi motivatsiyaning o‘zaro ta’siri, oilaviy-tarbiyaviy muhit hamda institutsional sharoitlarni yagona tizimda tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu bois mazkur tadqiqotda uch bosqichli motivatsion model va rag‘batlantiruvchi omillarning uch darajali tizimi o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini motivatsiya nazariyalari, mustaqil yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi, o‘zini o‘zi belgilash nazariyasi, ijtimoiy o‘rganish yondashuvi va o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish tamoyillari tashkil etadi [4; 6–10]. Ushbu nazariyalar yoshlarning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini shaxsiy ehtiyojlar, ijtimoiy muhit va pedagogik ta’sirlar o‘zaro aloqadorligida tushuntirish imkonini beradi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil usuli — o‘z-o‘zini rivojlantirish, ichki va tashqi motivatsiya, internalizatsiya hamda mustaqil ta’limga oid ilmiy qarashlarni o‘rganish va umumlashtirish uchun qo‘llanildi.

Qiyosiy tahlil usuli — xorijiy motivatsiya nazariyalari va milliy tarbiyaviy yondashuvlarning umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tizimli yondashuv — o‘z-o‘zini rivojlantirishga ta’sir etuvchi shaxsiy, oilaviy, ta’limiy va ijtimoiy omillarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish uchun qo‘llanildi.

Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish usuli — yoshlar faoliyatining xususiyatlari, motivatsiyani shakllantirish va mustaqil faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga doir nazariy xulosalarni bir tizimga keltirish imkonini berdi.

Modellashtirish usuli — ichki va tashqi omillar integratsiyasini ifodalovchi “impuls – internalizatsiya – mustaqil faoliyat” uch bosqichli modelini hamda rag‘batlantiruvchi omillarning mikro-, mezo- va makrodarajalarini nazariy jihatdan asoslash uchun foydalanildi.

Tahliliy yondashuv — o‘z-o‘zini rivojlantirish darajasini baholash mezonlari, monitoring mexanizmlari va natijalarni amaliyotga tatbiq etish bosqichlarini ishlab chiqishda qo‘llanildi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega. Unda taklif etilgan modellar mavjud ilmiy qarashlar va adabiyotlarni umumlashtirish asosida shakllantirilgan. Shu sababli mazkur modellarni amaliyotga joriy etish samaradorligi alohida empirik va tajriba-sinov tadqiqotlari orqali tekshirilishi lozim.

NATIJALAR

Zamonaviy yoshlar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari

Zamonaviy yoshlarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga uchta asosiy omil ta’sir ko‘rsatadi: raqamli texnologiyalardan foydalanish, tezkor natijaga intilish va umrbod ta’limga ehtiyoj.

Raqamli texnologiyalar mustaqil ta’lim olish, axborot izlash va yangi bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytiradi [3; 4]. Biroq axborotning ko‘pligi diqqatni jamlashni qiyinlashtirishi mumkin. Shu sababli yoshlar axborotni tanlash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishi zarur.

Tezkor natijaga intilish ayrim hollarda uzoq muddatli maqsadlarga erishishda sabrsizlikni keltirib chiqaradi. Buni bartaraf etish uchun maqsadlarni kichik vazifalarga ajratish, natijalarni muntazam baholash va qiyinchiliklarni rivojlanishning tabiiy qismi sifatida qabul qilish muhimdir.

Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar esa umrbod ta’limning ahamiyatini oshirmoqda [4; 21]. Demak, zamonaviy yoshlar o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida mustaqillik, sabr-toqat, diqqatni boshqarish va doimiy o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim.

Ichki va tashqi omillar integratsiyasining uch bosqichli modeli

O‘z-o‘zini rivojlantirish ichki motivatsiya va tashqi ta’sirlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Ushbu jarayonni “impuls – internalizatsiya – mustaqil faoliyat” modeli orqali tushuntirish mumkin.

Birinchi bosqich — impuls. Bunda o‘qituvchi, ota-ona yoki mentorning rag‘batlantirishi yoshda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga qiziqish uyg‘otadi.

Ikkinchi bosqich — internalizatsiya. Bu bosqichda tashqi rag‘batning mazmuni anglanib, faoliyat shaxsiy ehtiyoj va qadriyatlarga aylana boshlaydi. Desi va Rayanning o‘zini o‘zi belgilash nazariyasiga ko‘ra, bu jarayon motivatsiyaning barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi [6; 7].

Uchinchi bosqich — mustaqil faoliyat. Yosh o‘z maqsadlarini belgilash, faoliyatini rejalashtirish va natijalarini baholashni mustaqil amalga oshiradi. Bu bosqichda pedagog nazoratchidan ko‘ra maslahatchi va hamkor vazifasini bajaradi.

Bosqichlar qat’iy chegaralarga ega emas. Shu sababli yoshlarning individual ehtiyojlari va tajribasini hisobga olish, tashqi rag‘batni ichki motivatsiya hamda mustaqil faoliyat bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

O‘z-o‘zini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashning xalqaro strategiyalari

Xalqaro tajribada yoshlarning mustaqil rivojlanishi, asosan, institutsional-tizimli va madaniy-tarbiyaviy yondashuvlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi [15].

Institutsional yondashuv individual ta’lim rejalari, loyiha faoliyati, mentorlik va mustaqil ta’lim imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi. Madaniy-tarbiyaviy yondashuv esa oila, ijtimoiy qadriyatlar va jamoaviy munosabatlar orqali mustaqillik hamda mas’uliyatni shakllantirishga qaratiladi.

Ushbu yondashuvlar bir-birini to‘ldiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham individual ta’lim trayektoriyalari, loyiha asosida o‘qitish va mentorlikni rivojlantirish yoshlarning mustaqil faoliyatini kuchaytirishi mumkin. Bunda xalqaro tajribani milliy-madaniy sharoitlarga moslashtirish zarur.

Rag‘batlantiruvchi omillarning mikro-, mezo- va makrodarajalari

O‘z-o‘zini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar uch darajaga ajratiladi:

Mikrodaraja — oila, o‘qituvchi, mentor va do‘stlarning qo‘llab-quvvatlashi, ijobiy munosabati hamda konstruktiv fikr-mulohazalari.

Mezodaraja — ta’lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari va mehnat jamoalarining ta’lim dasturlari, grantlar, tanlovlar va mentorlik imkoniyatlari.

Makrodaraja — davlat siyosati, qonunchilik, milliy dasturlar va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar.

Ushbu darajalarning samaradorligi o‘zaro muvofiqlashuvga bog‘liq. Davlat dasturlari amaliyotga samarali tatbiq etilishi, tashkilotlar zarur sharoit yaratishi, oila va pedagoglar esa yoshlarni qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Milliy-madaniy kontekst va fanlararo yondashuv

O‘z-o‘zini rivojlantirishni o‘rganishda milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olish muhim. O‘zbekiston jamiyatida oila, mahalla, kattalarga hurmat va o‘zaro yordam qadriyatlari yoshlarning qarorlari hamda maqsadlariga ta’sir ko‘rsatadi [11; 12].

Jamoaviy qadriyatlarni yoshlarning mustaqil fikrlashi va shaxsiy tanlovi bilan uyg‘unlashtirish zarur. Shuningdek, ilmiy to‘garaklar, kasbiy hamjamiyatlar va raqamli ta’lim resurslari bilim almashish hamda yangi tajriba orttirishga yordam beradi [10; 20].

Mazkur jarayonni fanlararo yondashuv asosida o‘rganish maqsadga muvofiq: psixologiya motivatsiyani, pedagogika ta’lim jarayonini, sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni, iqtisodiyot esa kasbiy rivojlanish va inson kapitalini tahlil qiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirishni baholash va monitoring qilish

O‘z-o‘zini rivojlantirish samaradorligini baholashda ichki va tashqi omillar hisobga olinadi. Ichki mezonlarga maqsad belgilash, mustaqil o‘rganish, vaqtni boshqarish va o‘z faoliyatini tahlil qilish kiradi. Tashqi mezonlar esa mentorlik, ta’lim resurslari va oilaviy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini qamrab oladi.

Baholashda so‘rovnoma, suhbat, kuzatuv va portfolio tahlilidan foydalanish mumkin [18]. Bunda faqat yakuniy natijaga emas, balki yoshning rivojlanish dinamikasi, erishgan yutuqlari va qiyinchiliklarni yengish tajribasiga ham e’tibor berish lozim.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish bosqichlari

O‘z-o‘zini rivojlantirishni tashkil etishda “diagnostika – loyihalash – amalga oshirish – baholash” siklidan foydalanish tavsiya etiladi.

Diagnostika — yoshning ehtiyojlari, qiziqishlari va rivojlanish darajasini aniqlash.

Loyihalash — aniq maqsadlar, muddatlar va zarur resurslarni belgilash.

Amalga oshirish — mustaqil ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar va loyiha faoliyatini tashkil etish.

Baholash va tuzatish — natijalarni tahlil qilish hamda rivojlanish rejasini takomillashtirish.

Ushbu tizim o‘z-o‘zini rivojlantirishni uzluksiz va izchil jarayon sifatida tashkil etish imkonini beradi [10; 17].

O‘z-o‘zini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar

Yoshlarning o‘z-o‘zini rivojlantirishini qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagi choralar muhim:

Ta’lim muassasalari: individual rivojlanish rejalarini joriy etish, mentorlikni rivojlantirish va mustaqil loyihalarni rag‘batlantirish.

Oila: farzandlarning fikrini tinglash, mustaqil qaror qabul qilishiga imkon berish va yutuqlarini e’tirof etish.

Yoshlar tashkilotlari va davlat organlari: grantlar, mentorlik dasturlari va raqamli ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish.

Yoshlarning o‘zlari: maqsadlarni kichik vazifalarga ajratish, vaqtni rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish va yangi bilimlarni muntazam egallash.

Xulosa qilib aytganda, barqaror o‘z-o‘zini rivojlantirishni ta’minlash uchun ichki motivatsiya, mustaqil qaror qabul qilish, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va institutsional imkoniyatlarni uyg‘unlashtirish zarur.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari zamonaviy yoshlarning o‘z-o‘zini rivojlantirish faoliyati raqamli muhit, shaxsiy motivatsiya, oilaviy munosabatlar va institutsional sharoitlarning o‘zaro ta’sirida shakllanishini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq ulardan samarali foydalanish uchun axborotni tanlash, diqqatni boshqarish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari ham zarur. Demak, raqamli resurslardan foydalanishni kengaytirish bilan bir qatorda, yoshlarni ulardan maqsadli va ongli foydalanishga o‘rgatish lozim.

Ushbu xulosa M. Prenskiyning raqamli avlod haqidagi qarashlarini mustaqil ta’lim va o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish yondashuvlari bilan birgalikda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi [3; 4; 10]. Raqamli muhitda ulg‘ayish muayyan texnologik tajribani shakllantirishi mumkin, biroq bu holat o‘z-o‘zidan chuqur bilim, mustaqil fikrlash yoki barqaror motivatsiyani kafolatlamaydi. Shu sababli ta’lim jarayonida raqamli savodxonlikni refleksiya va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari bilan birgalikda rivojlantirish maqsadga muvofiq.

“Impuls – internalizatsiya – mustaqil faoliyat” modeli tashqi rag‘bat va ichki motivatsiyani qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki rivojlanish jarayonida o‘zaro bog‘liq omillar sifatida tushuntiradi. Dastlabki bosqichda o‘qituvchi, ota-ona yoki ijtimoiy muhitning ko‘magi zarur bo‘lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli natijaga erishish uchun yosh faoliyatning ma’nosini anglab, uni o‘z maqsadlari bilan bog‘lay olishi kerak. Bu jihat o‘zini o‘zi belgilash nazariyasidagi avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlari bilan uyg‘unlashadi [6; 7].

Shu bilan birga, taklif etilgan modelni barcha yoshlar va faoliyat turlariga bir xil tartibda tatbiq etish mumkin deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shaxsning yoshi, oldingi tajribasi, o‘rganilayotgan faoliyatning murakkabligi va ijtimoiy sharoitlar bosqichlar o‘rtasidagi o‘tish sur’atiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli model pedagogik amaliyot uchun yo‘naltiruvchi nazariy asos sifatida qaralishi va empirik tadqiqotlar orqali tekshirilishi lozim.

Rag‘batlantiruvchi omillarni mikro-, mezo- va makrodarajalarga ajratish esa o‘z-o‘zini rivojlantirishning faqat shaxsiy masala emasligini ko‘rsatadi. Yoshning

mustaqil rivojlanish istagi oiladagi munosabatlar, ta’lim muassasasidagi imkoniyatlar va kengroq ijtimoiy muhit bilan o‘zaro bog‘liq. Agar ta’lim muassasasi mustaqillikni rag‘batlantirsa-yu, oilada barcha qarorlar yoshning o‘rniga qabul qilinsa, mustaqil faoliyatni shakllantirish jarayoni murakkablashishi mumkin. Xuddi shuningdek, rivojlanish uchun zarur dasturlar mavjud bo‘lsa-da, ulardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan holatlarda kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi.

Milliy-madaniy kontekstni hisobga olish ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Oila va jamoaning shaxs rivojlanishidagi o‘rni yoshlarning maqsadlari hamda mas’uliyatini shakllantirishda ijobiy imkoniyat yaratishi mumkin. Bunda jamoaviy qadriyatlarni shaxsiy mustaqillikka zid qo‘yish emas, balki ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish zarur. Oila va jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘mak yoshning tashabbuskorligini cheklamasdan, uning mustaqil qarorlar qabul qilishiga xizmat qilishi lozim.

Baholash va monitoring tizimi ham ushbu tamoyillarga mos bo‘lishi kerak. Agar rivojlanish faqat reyting va tashqi nazorat bilan o‘lchansa, yoshlar faoliyatning mazmunidan ko‘ra baho olishga ko‘proq e’tibor qaratishi mumkin. Shu sababli baholashda shaxsiy rivojlanish dinamikasi, maqsadlarni mustaqil belgilash, qiyinchiliklarni yengish va refleksiya ko‘nikmalarini ham hisobga olish zarur.

Tadqiqotning muhim cheklovi shundaki, unda taklif etilgan modellar nazariy tahlil va ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan. Ularning turli yosh guruhlari, ta’lim muassasalari va ijtimoiy muhitlarda samaradorligi maxsus empirik tadqiqotlar orqali aniqlashtirilishi lozim. Kelgusida so‘rovnomalar, intervyular, pedagogik tajriba-sinov ishlari va uzoq muddatli kuzatuvlar yordamida modelning amaliy natijalarini tekshirish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Zamonaviy yoshlar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, axborot bilan ishlash shakllarining o‘zgarishi, tezkor natijaga erishish istagi va umrbod ta’limga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Ushbu xususiyatlar o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, diqqatni boshqarish, uzoq muddatli maqsadlarga intilish va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruratini ham yuzaga keltiradi.

Tadqiqot asosida ichki va tashqi omillar integratsiyasini ifodalovchi “impuls – internalizatsiya – mustaqil faoliyat” uch bosqichli modeli taklif etildi. Modelga ko‘ra, dastlabki tashqi rag‘bat shaxsda qiziqish uyg‘otadi, keyinchalik faoliyatning shaxsiy ahamiyati anglanib, tashqi talablar ichki qadriyatlarga aylana boshlaydi. Yakuniy bosqichda esa yosh o‘z rivojlanish maqsadlarini belgilash, faoliyatini rejalashtirish va natijalarini mustaqil baholash qobiliyatini namoyon etadi. Bunda bosqichlar qat’iy chegaralarga ega emasligi va har bir faoliyat sohasi uchun individual yondashuv zarurligi hisobga olinishi lozim.

O‘z-o‘zini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni mikro-, mezo- va makrodarajalarga ajratish oilaviy munosabatlar, ta’lim muassasalari va davlat siyosati o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlikning ahamiyatini ko‘rsatadi. Barqaror na-

tijaga erishish uchun shaxslararo qo‘llab-quvvatlash, institutsional imkoniyatlar va kengroq ijtimoiy shart-sharoitlar bir-birini to‘ldirishi zarur.

Xorijiy motivatsiya nazariyalarini milliy ta’lim va tarbiya amaliyotiga tatbiq etishda mahalliy oilaviy-madaniy qadriyatlarni hisobga olish muhimdir. Jamoaviy mas’uliyat, o‘zaro yordam va oilaviy qo‘llab-quvvatlash yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu qadriyatlar mustaqil fikrlash, shaxsiy tanlov va mas’uliyatli qaror qabul qilish imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

O‘z-o‘zini rivojlantirishni amaliy tashkil etishda “diagnostika – loyihalash – amalga oshirish – baholash” siklik tizimidan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu tizim yoshlarning ehtiyojlarini aniqlash, individual rivojlanish rejalarini tuzish, ularni amalga oshirish va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi. Baholash jarayoni tashqi nazorat bilan cheklanmasdan, yoshlarning o‘z faoliyatini tahlil qilish va rivojlanish dinamikasini kuzatish vositasi sifatida tashkil etilishi kerak.

Amaliy jihatdan ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirish, oilada farzandlarning mustaqil qaror qabul qilishini qo‘llab-quvvatlash, yoshlar tashkilotlarida mentorlik va hamkorlik dasturlarini kengaytirish hamda raqamli ta’lim resurslaridan ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda taklif etilgan nazariy modellarni tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish, yoshlarning o‘z-o‘zini rivojlantirish darajasini baholash vositalarini takomillashtirish va oila, ta’lim muassasalari hamda yoshlar tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunday tadqiqotlar o‘z-o‘zini rivojlantirishni samarali qo‘llab-quvvatlash va yoshlarning shaxsiy hamda kasbiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. — 2001. — Vol. 9, No. 5. — P. 1–6.

4. Knowles M. S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. — New York: Association Press, 1975.

5. Maslow A. H. Motivation and Personality. — New York: Harper & Row, 1954.

6. Ryan R. M., Deci E. L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. — 2000. — Vol. 55, No. 1. — P. 68–78.

7. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. — New York: Guilford Press, 2017.

8. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. — New York: W. H. Freeman, 1997.

9. Bandura A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.

10. Zimmerman B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70.

11. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

12. Oila psixologiyasi / G‘. B. Shoumarov tahriri ostida. — Toshkent: Sharq, 2008.

13. Mahmudova D. B. Talabalarda o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirish: Monografiya. — Toshkent, 2025.

14. Mahmudova D. B. Mustaqil ta’lim asoslari: O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Osiyo tur, 2026.

15. Mahmudova D. B. International Experiences in the Field of Formation of Motivation for Self-Independent Development in Students // International Journal of Artificial Intelligence. — 2024. — Vol. 4, No. 4. — P. 127–129.

16. Mahmudova D. B. Motivation for Independent Self-Development of Students // European Journal of Humanities and Educational Advancements. — 2023. — Vol. 4, No. 12. — P. 121–124.

17. Mahmudova D. B. Модель процесса формирования мотивации к самостоятельному развитию у студентов // Экономика и социум. — 2024. — № 6(121).

18. Mahmudova D. B. Talabalarda o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirishning samaradorlik darajasini aniqlash metodikasi // Pedagogika. — Toshkent, 2025. — 1-son.

19. Mahmudova D. B. Talabalarda o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirish jarayonining modeli // ADPI ilmiy xabarnomasi. — Andijon, 2025. — 4-son.

20. Wenger E. Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

21. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. — New York: Columbia University Press, 1964.

22. Baumrind D. Effects of authoritative parental control on child behavior // Child Development. — 1966. — Vol. 37, No. 4. — P. 887–907.